ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NUTQDA PAREMIYALARGA XOS MILLIY-MADANIY KONSEPTLARNING IFODALANISHI

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti dotsenti

Zamonaviy tilshunoslikda keyingi davrda antroposentrizm paradigmasi doirasidagi tadqiqotlar miqdori ortmoqda. Lingvokulturologiya ana shu paradigma qatoriga kiruvchi sohalardan biri sifatida jadal taraqqiy etmoqda. Lingvokulturologiyada milliy-madaniy xususiyatlarni o'zida jamlovchi, muayyan xalqning tarixi, madaniyati, o'ziga xos udumlari, milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi birliklar: metaforalar, o'xshatishlar, etnografizmlar, maqol va matallar, frazeologizmlar, pretsedent nomlar kabilarni tadqiq etishga katta ahamiyat beriladi. Lingvokulturologiyada muhim tushunchalardan sanaluvchi olamning lisoniy manzarasi, lisoniy shaxs, madaniy kod, stereotip, konsept kabilar maqol va matallarda, frazeologizmlarda o'zining yaqqol ifodasini topadi.

O'zbek folklori ham dunyodagi eng qadimiy, badiiy jihatdan mukammal namunalarni o'zida jamlagan. «Otalar so'zi» deb ataluvchi maqollarda milliy-madaniy xususiyatlarimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mehmondo'stlik, bolajonlik, ota-onaga hurmat, sabr, mehnatsevarlik kabi konseptlar badiiy tarzda o'z ifodasini topgan. Mazkur birliklarda metafora va o'xshatishlarning xalq tarixi va dunyoqarashi, etalonlarini aks ettiruvchi namunalari kuzatiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik hodisalarining ilmiy tadqiqotlari bevosita inson, til, tafakkur va madaniyat kesishmasining muhim birligi bo'lgan konsept va konseptual tadqiqotlarining nazariy asoslariga tayangan holda amalga oshirilishiga zarur ehtiyoj sezilmoqda. Lingvomadaniy konseptlarni xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'rganish dunyo tilshunosligida ham jadal tus olayotgani ayni shu ehtiyojni qanoatlantirish yo'lida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlar orqali til insonning aqliy (mental) strukturalari, tafakkur jarayonlari va ularni keltirib chiqaruvchi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog'liq ekanligi masalalarini o'rganish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, H.Glints, H.Holts, U.D.Whitney, D.W.Powell, F.Boas, E.Sapir, B.L.Whorf, G.Brutyan, A.Vejbickaya, D.Hyms kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.[1] Hozirgi antroposentrik fanlar kesimida qator falsafiy, milliy-mental, ilmiy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar lingvokonsept sifatida tadqiq qilinmoqda. Jumladan, dunyo tilshunosligida konseptlar va u bilan bog'liq juda ko'p assotsiativ tushunchalar o'rganilgan. Jumladan, rus tilshunosligida F.B.Muxutdinova[2], V.V.Vasyuk[3], Y.V.Belik[4], L.V.Adonina[5], M.A.Andreyanova[6], O.A.Chibisheva[7], N.A.Paskova[8], Y.V.Mesheryakova[9], G.A.Sadriyeva[10], I.O.Okuneva[11] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

[1] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

[2] Мухутдинова Ф.Б. Концепт «Женщина» во французском языковом сознании (на материале афористики): Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – М., 2006. – 21 с.

[3] Васюк В.В. Концент «женщина» в статике и динамике фразеологии английского языка: Автореф. дисс.. канд. филол. наук. – М., 2002. – 24 с.

[4] Белик Е.В. Лингвокультурологические особенности лексики и фразеологии современного английского языка (на материале лингвокультурологического поля «мужчина и женщина»): Автореф... дис. канд. филол. наук. – М., 2003. – 23 с.

[5] Адонина Л.В. Концепт «женщина» в русском языковом сознании: Автореф. дисс... канд. филол..наук. – Воронеж, 2007. – 23 с.

[6] Андреянова М. А. Реализация концепта «мать (mother)» в русском и английском языках (на материале романов М. Горького и Дж. Э. Стейнбека) // М. А. Андреянова, Г. А. Багаутдинова. Вестник.Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. Вып. 55. – Челябинск: Издательство Челябинского государственного университета, 2011. – С. 17 - 22

[7] Чибишева О.А. Рус ва инглиз фразеологизмларида аёл концепти: Автореферат. – Челябинск, 2005. – 31 с.

[8] Паскова Н.А. Концепт «женщина» в текстах среднеанглийского периода: Опыт семантической реконструкции на основе произведений Дж. Чосера: Автореф. кандидат филологических наук. – Иркутск, 2003. – 36 с.

[9] Мещерякова Ю.В. Концепт «красота» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дисс.… канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 24 с.

[10] Садриева Г.А. Устойчивые образные средства, репрезентирующие концепт «красота», в английском, русском и татарском языках: Диссертация кандидата филологических наук. – Казань, 2007. – 209 с.

[11] Окунева И.О. Концепт "красота" в русском и английском языках. Диссертация кандидата филологических наук. – М., 2009. – 313 с.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya, konsept, paremiyalarning lingvokulturologik jihatlari borasida R.S.Ibragimova[1], M.M.Rahmatova[2]lar tomonidan monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, maqol va matal, frazeologizmlarning lingvokonseptual jihatlari, semantikasi va shakllanish asoslari Z.Xolmonova, B.Jo‘rayeva kabi bir qator o‘zbek olimlari tomonidan tahlillar asosida o‘rganilgan.

Mazkur maqolada diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslikda eng ahamiyatli tushunchalardan sanaladi. Mazkur tushuncha 1928-yilda S.Askoldov tomonidan **«**Konsept va so‘z**»** maqolasida ilk bor ilmiy iste’molga kiritilgan[3], XX asrning 90-yillaridan boshlab fanda keng qo‘llanayotgan konsept termini bugungi tilshunoslikda ham markaziy tushunchalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida konsept tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, S.Askoldov konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra konseptlarni yaratish va qabul qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi, deya ta’kidlasa, Y.S.Stepanov konseptning mental jihatlarini ochishga harakat qilgan[4]. Olim konseptni lingvomadaniyat-shunoslik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi: **«**Konsept − bu inson ongidagi madaniyat yig‘indisi; insonning mental dunyosiga madaniyat tarzida kirgan narsa; madaniyat boyliklarining ijodkori**»**[5] sifatida baholaydi. Bulenvile fikricha esa, aql bilan shakllangan barcha konseptlar g‘oyadir. Olimning nazarida, konsept – o‘sha jamiyatning ideologiyasidir. Bu jihatdan konsept nafaqat madaniyatshunoslik, balki falsafa fanining ham o‘rganish obyekti sifatida maydonga chiqadi.

N.Teliyaning ta’rificha, konsept bilimning hajmini kengaytirishga qaratilgan, biz obyekt haqida bilgan, tasavvur qilgan narsa hisoblanadi[6].

Zamonaviy ruslar ongida etnomadaniy tushunchalar haqida juda ko‘plab maqolalar e’lon qilib, lingvomadaniyatshunoslik va kongnitiv tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus tilshunosi G.Slishkinning fikriga ko‘ra, qanchalik konseptni ifodalovchi belgilar potensial tarzda mavjud bo‘lsa, mazkur konsept shunchalik qadimiy bo‘ladi va o‘sha til jamoasida uning qimmati ortadi[7].

Demak, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, har qanday obyekt konsept bo‘la olmaydi. Konseptga Shvedova quyidagicha ta’rif beradi: **«**Konsept – tushuncha ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda aniqlanuvchi, kishilar umrining muhim ruhiy-aqliy qirralarini akslantiruvchi o‘z tarixiy ildizi va o‘tmishiga ega bo‘lgan, xalq va millatlarning umumiy tajribasini ifodalovchi mazmundir[8]**«**.

Umuman, konsept atamasini kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan juda ko‘p tilshunos olimlar, jumladan, D.Lakoff, R.Langaker, M.Jonson, Ch.Filmor, S.Kubryakova, A.P.Babushkin, J.R.Anderson, P.Zekendorf, S.Shifer kabi olimlar o‘rgangan bo‘lsa; psixolingvistikada A.A.Leontev, A.A.Zalevskaya; lingvomada-niyatshunoslikda Y.S.Stepanov, N.D.Arutyonova, V.I.Karasik, V.V.Vorobyov, V.V.Kolesov, S.X.Lyapin[9] va boshqa olimlar tadqiq etganlar.

Bugungi o‘zbek tilshunosligida eng ko‘p tadqiq etilayotgan antropotsentrik yo‘nalishdagi sohalardan biri lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik sohalari ekanligi shubhasiz. Konsept ana shu ikki muhim tarmoqdan o‘sib chiqqan ilmiy atama bo‘lib, uning milliy-mental tabiatga egaligi, inson tafakkuri hosilasi o‘laroq tatbiq qilinishi bu ikkala fan sohasining ham umumkesishuv nuqtalari bo‘lib xizmat qiladi. Konsept istelohi bugungi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlarining asosini tashkil qiladi. Antroposentrik paradigma asosida shakllanayotgan lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika fanlarida alohida mavqeda o‘rin tutadi[10]. **«**Konsept**»** atamasi nafaqat tilshunoslikning, balki

[1] Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи. Автореф. Фил. фан номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган. – Тошкент, 2012. – 31 б.

[2] Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Фил. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 51 б.

[3] Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. –Москва: Академи: 1997.

[4] Сайидраҳимова Н., Қобулова У. Лингвокультурология – тилшуносликнинг алоҳида соҳаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №4. – Б.87-91.

[5] Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С. 40.

[6] Телия В.Н. Типы языковых значений. Связанное значение слова в языке. – М.: Наука, 1981. – 269 с.; Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986. – 143 с.; Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

[7] Слышкин Г.Г. Интертекстуальность как инструмент лингвистического маркетинга (на материале переводов названий текстов массовой культуры) / Москва, 2014. – 238 с. Лингвокультурный концепт “Наполеон” // Этнокультурные концепты в сознании современных россиян // Москва, Элиста. 2010 -17 с.

[8] Шведова Н.Ю. Избранные работи. – М, 2005.

[9] Усманова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2014. – Б.43.

[10] http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение.

adabiyotshunoslik, falsafa, estetika fanlarining ham o‘rganish obyektlaridan biri sanaladi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab konsept tushunchasi ongimizda aks etadigan jarayonlarni ifodalovchi birlik sifatida qo‘llana boshladi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept insonning bilimi va tajribasini, milliy-mental lisoniy ongini, butun olam manzarasini, miyaning konseptual va til tizimini, ruhiy-psixologik holatini ifodalovchi vosita sifatida o‘rganiladi[1].

Ingliz lug‘atida konsept qolipga, stereotipga, umumqabul qilingan fikr, nuqtayi nazarga yaqin turadi.

Mohiyat va dalillar konsept ma’nosiga monand bo‘lib, dunyo haqidagi ma’lumotlarning boshqa bir ma’lumotlar bilan moslashgan shakli, tasavvur qilingan bilimlar tizimlanishidir.

Yuqoridagi izohlardan ko‘rinib turibdiki, konsept haqida tilshunoslikda yagona ta’rif keltirilmagan. Natijada, fanda konseptni tushunishda uchta asosiy yondashuv kuzatildi: lingvistik, kognitiv, madaniyatshunoslik nuqtayi nazardan yondashuv.

Konsept terminiga o‘zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.Mamatovlar tomonidan ham izohlar berilgan[2].

Albatta, konsept tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy-ma’noiy tushuncha hisoblanadi. Biroq uni butunlay milliy-madaniy xususiyatlardan holi holda ko‘rib chiqish bahsli masalalardan biridir. Ushbu mavzuga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy ishlar muallifi S.G. Vorkachev lingvokonseptning asosiy ajratuvchi belgisi aynan uning etnomadaniy tavsifga egaligidadir, deya urg‘u beradi.[3]. Mashhur tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov esa o‘zining **«**Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…**»** nomli maqolasida konseptga rus tilshunosligida berilgan ko‘plab ta’riflar orasida V.A. Maslova tomonidan taklif etilgan ta’rif eng aniq va haqqoniy talqindir, degan fikrni ilgari suradi.

Uning nuqtai nazariga ko‘ra, konsept – bu lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan mazmuniy birlikdir.

Uningcha, konsept, **«**bu – lingvomadaniy o‘ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir[4]**«**.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda konseptni inson milliy mentalitetining o‘zagi deb hisoblashimiz mumkin.

N.Shvedova konseptning tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi va ko‘rinib turuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiradigan, o‘z tarixiy ildizlari, yo‘llariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiruvchi mazmun turishini ta’kidlab qayd etgan[5].

Konsept lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi ekan, uni o‘rganish va tadqiq etishning ham o‘ziga xos usul hamda metodlari mavjuddir.

Konseptning o‘ziga xos qatlamlardan iborat ekanligini yuqorida aytib o‘tgandik. Konseptning turli qatlamlari turli xalqlar madaniy hayotining natijasi hisoblanadi. Shuning uchun ham konseptni o‘rganishda bir qancha metodlardan foydalanish mumkin.

Ko‘pgina olimlar, xususan R.M.Frumkinning qarashlariga ko‘ra, konseptni aylana shaklida tasvirlaydigan bo‘lsak, uning markazida asosiy tushuncha tursa, uning atrofida esa qolgan barcha tushunchalar – madaniy, an’anaviy, milliy va shaxsiy tajribadan kelib chiqqan fikrlar mujassamlashadi.

Z.D.Popova konsept atamasi ostida o‘zida shaxs va jamiyatning ifodalanayotgan predmet yoki hodisa, ushbu axborot, predmet va hodisaga nisbatan munosabatining ijtimoiy ong orqali interpretatsiyalanishi haqidagi kompleks ensiklopedik axborotni tashuvchi kognitiv faoliyatning natijasini aks ettiruvchi, nisbatan tartibga solingan ichki strukturaga ega inson tafakkur kodining asosiy birligini tushunadi[6].

Konsept tuzilishida quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi bir qator tarkibiy komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin[7]:

1) etimologik daraja o‘zida konsept semantikasi tarixiy taraqqiyot yo‘lining tavsifini, uning denotativ va konnotativ ma’nolari shakllanishini ko‘rsatadi;

2) asosiy daraja konseptning zamonaviy ensiklopedik ma’nolarini o‘zida jamlagan majmua sifatida namoyon bo‘ladi;

---

[1] http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение

[2] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Маматов А.Е. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212; Маҳмудов Н.Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...\\ Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. –№ 5. – Б.3-16.

[3] Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – №4. – С.76.

[4] Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2008. – С.50.

[5] Шведова Н.Ю. Избранные работы. – М, 2005.

[6] Попова З. Когнитивная лингвистика. – М., 2007. –315 с. – С. 34.

[7] Степанов Ю.С. Юқоридаги манба. – Б. 42-45; Филиппова М.А. Концепт «демократия» в американской лингвокультуре // Известия Волгоградского педагогического гос. ун-та, – Волгоград, 2007. – No2. – С. 18-22.

3) assotsiativ-kengayuvchi bosqich konsept tuzilmasida assotsiativ bog‘lanishlar asosida shakllanadigan barcha denotativ hamda konnotativ ma’nolar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Z.D.Popova va I.A.Sterninlar ham konseptning quyidagi uch asosiy struktur komponentlari haqida fikr bildiradilar:

1) obraz – shaxs va millat ongida olamning sezgi organlari va kognitsiya yordamida olingan manzarasidir;

2) axborot mazmuni – predmet va undan foydalanish uchun differensial belgilar;

3) interpretatsiya maydoni – konsept asosiy axborot mazmunining interpretatsiyasi natijasida vujudga keluvchi kognitiv belgilar yordamida shakllanadi[1].

V.I.Karasik fikriga ko‘ra esa konsept strukturasi uch asosiy komponentlar orqali namoyon bo‘ladi:

1) predmetli-obrazli–xotirada muhrlangan u yoki bu obyekt, predmet, sifat, hodisabilan bog‘liq bir butun umumiy izdir;

2) tushunchaviy tarkibi, freymda shakllanadi;

3) konseptning mazmuniy mohiyatini o‘z ichiga olgan tushunchaviy-ratsional qismi. Mazkur yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tadqiqotchilar konsept strukturasida uch asosiy komponentni ajratadilar[2].

Y.V.Titova, Z.D.Popova, I.A.Sterninlar kabi konsept tuzilishida yadro (obraz), axborot qismi va interpretatsion maydonni ajratadi.

Interpretatsion maydon konseptning pereferiyasini tashkil etadi[3].

Interpretatsiya maydoni bir tarkibli emas. Unda o‘zaro yaqin va mazmun jihatidan bog‘liq bo‘lgan bir nechta kognitiv belgilarni birlashtiruvchi alohida qismlar ajratiladi, muallif bu qismlarni **«**hudud**»** deb ataydi:

– umumiy (yaxshi/yomon), intellektual (aqlli/ahmoq), estetik (chiroyli/xunuk), emotsional (yoqimli/yoqimsiz), axloqiy (mehribon/zolim, adolatli/adolatsiz) bahoni aks ettiruvchi baho qismi;

– kopsept va denotat, ta’lim va tajriba hamda konseptning o‘z denotati bilan o‘zaro munosabati bilan tanishlikni talab etuvchi konsept belgilarini tavsiflovchi qomusiy qism;

– konsept denotatiga utilitar, pragmatik munosabat, ma’lum bir pragmatik maqsadlar uchun qo‘llash imkoniyatlari va xususiyatlari bilan bog‘liq bilimlarni ifodalovchi belgilarni birlashtirgan utilitar hudud;

– konsept bilan **«**o‘ralgan**»** hududdagi axloq me’yorlarini tayin etuvchi regulyativ qism;

– konseptning xalq turmushi va madaniyati (urf-odat, an’ana, adabiyot namoyandalari, badiiy asarlar, pretsedent matnlar) bilan aloqasini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy qism;

– maqol, matal va aforizmlarda muhrlagan tasavvur, ishonch, e’tiqodlarni aks ettiruvchi paremiologik qism. Shunday qilib, konseptning struktur komponentlari umumlashmasi uning mohiyatidir[4]. U til vakilining ongidagi konsept bilan uyg‘unlashib ketgan tasavvurlari, ishonch-e’tiqodlari, millat vakiliningning tarixiy taraqqiyotini ifodalagan barcha bilim, tavsif va belgilari yig‘indisini ifodalaydi.

Muayyan tildagi konseptlarni tahlil etishda ushbu xususiyatlarni e’tiborga olish zarur sanaladi.

Konsept lingvomadaniy birlik sifatida ma’lum bir millat tarixi va madaniyatidan xabar beruvchi o‘ziga xos vosita bo‘lib, u o‘zi ifodalayotgan tushunchani millat va elat a’zolarining xos xususiyatlaridan va lisoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib tasvirlaydi[5].

Prof. Sh.Usmanova konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifoda qilishini e’tirof etib, *uy* konseptining o‘zbek kishilarida assotsiatsiyalanishini quyidagicha keltiradi:

a) yashash joyi-bino-ko‘p qavatli uy-hovli-xonadon-oila;

b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug‘, yangi, eski;

d) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi[6].

Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. Konsept – madaniy universaliyalarni ifodalovchi va tafakkurda mavjud bo‘lgan birlik bo‘lib, u kognitiv-ratsional hamda emotsional-psixologik mazmunni o‘zida mujassamlashtiradi. Lingvomadaniy konsept til egalarining dunyoqarash modelini shakllantiradi va shu bilan birga milliy xarakterning tarkib topishida muhim madaniy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

K.Yusupov nuqtayi nazarida **«**konsept bu – ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar,

[1] Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Воронеж, 2007. – С. 74-80.

[2] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – С. 109.

[3] Титова Ю. В. Структура концепта и методы его описания // Вестник Ульяновского государственного технического университета. – 2010. – No4. – С.17-18.

[4] http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356: Ценностно-смысловое пространство художественного текста: лингвокогнитивное измерение

[5] http://elibrary.ru/item.asp?id=41692356

[6] Усманова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2019. – Б.44.

ya’ni baholashlar. «Konsept – bu ongimizda mavjud bo‘lgan tashqari yo ichkari olamdagi biron buyum yo jarayonlar to‘g‘risidagi ilmlar majmuasi, ular to‘g‘risidagi ko‘rinish hamda unga nisbatan yaxshi, yomon yo neytral munosabatdir»[1]. Olimning nazarida, konsept – obyektga bo‘lgan shaxsiy munosabatdir.

O‘zbek xalqining milliy madaniyati, dunyoqarashi va mentaliteti til orqali, ayniqsa paremiyalar – maqol, matal va aforizmlar orqali ifodalanadi. Ular xalq tafakkuri, qadriyatlari va hayot tajribasining ko‘zgusidir. Paremiyalarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish inson ongidagi konseptlarni – ya’ni dunyoni idrok etish va baholash usulini – tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbek maqollarida jamoatparvarlik, mehnatsevarlik, sabr, mehr-oqibat, sadoqat va kattalarga hurmat kabi milliy madaniy konseptlar ustuvor o‘rin tutadi. Ularning shakllanishida diniy e’tiqodlar va etnik stereotiplar muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, paremiyalar xalqning milliy xarakteri va madaniy kodlarini anglash uchun asosiy manbadir. Ularni o‘rganish tilshunoslik bilan birga madaniyatshunoslik, psixologiya va pedagogika sohalarida ham ahamiyatli bo‘lib, milliy-ma’naviy merosni asrash va targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi

Resume. The article analyzes national-cultural concepts in paremias such as patriotism, patience, respect for parents, hospitality, and childishness. The important place of national-cultural concepts inherent in paremias in speech in modern linguistics is illustrated by examples.

Резюме. В статье анализируются национально-культурные концепты в паремиях, такие как патриотизм, терпение, уважение к родителям, гостеприимство, ребячество. На примерах иллюстрируется важное место национально-культурных концептов, заложенных в паремиях, в речи современного языкознания.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СООТНОШЕНИЯ ФРЕЙМА И КОНЦЕПТА

Панжиев Нормахмат,
Термезский государственный университет
доцент кафедры русского языкознания

Современная когнитивная лингвистика рассматривает язык как механизм репрезентации и организации знаний, в основе которого лежат различные ментальные структуры – концепты, фреймы, сценарии, схемы. Среди них фрейм и концепт занимают особое место, поскольку именно они обеспечивают когнитивное осмысление действительности и формируют основу языкового мышления.

Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых данным категориям, вопрос о соотношении фрейма и концепта остаётся дискуссионным. Существуют различные подходы к их определению, структуре и функциям в когнитивной системе языка. Одни исследователи трактуют фрейм как форму организации знаний, а концепт – как их содержательную часть; другие же рассматривают их как уровни одной и той же когнитивной структуры.

Цель настоящей статьи – теоретически обосновать соотношение фрейма и концепта, определить их общие и различительные характеристики, а также показать их роль в моделировании когнитивного и языкового опыта.

[1] Юсупов Ў.Қ. Чоғиштирма тилшуносликнинг янги вазифалари. Хорижий филология. – Самарқанд. – 2011. – №3. – Б. 100; Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б.49.